



# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.*

## Korxona Iqtisodiy Faoliyati Samaradorligining Statistik Tadqiqoti

**Arzikulov Otabek Ali o'g'li**

Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasи dotsenti

**Bosimqulova Maftuna**

Jizzax politexnika instituti talabasi

### ANNOTATSIYA

Korxona iqtisodiy faoliyatining samaradorligi, uning raqobatbardoshligini va umumiyligini iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda statistik tadqiqotlar samaradorlikni o'lchash va tahlil qilishda yordam beradi. Samaradorlikni baholash uchun statistik usullar, ko'sratkichlar va indikatorlardan foydalanish zarur, chunki ular korxonaning ichki va tashqi faktorlar bilan bog'liq faoliyatini to'liq aks ettiradi. Ushbu tezisda korxona iqtisodiy faoliyatining samaradorligini o'lchashning statistik metodlari va ularning amaliy ahamiyati muhokama qilinadi.

**Kalit So'zlar:** Kasanachilik, avtomatlashtirish, rentabellik, resurslardan foydalanish samaradorligi, kapital samaradorligi, xom-ashyo va materiallar, globallashuv.

Respublikamiz aholisining bandligi va daromadlari barqaror o'sishini ta'minlashga doir vazifalarni hal etishda kasanachilikning turli shakllarini keng rivojlantirish, jumladan, uning yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Shu o'rinda bir savol tug'iladi - Kasanachilik nima? Uning iqtisodni barqarorlashtirishga qanday aloqasi bor?

**Kasanachilik** — bu o'zining mehnatini yoki xizmatlarini sotish orqali daromad olish faoliyatidir. Kasanachilar odatda mustaqil ishchilar bo'lib, o'z bizneslarini yoki xizmatlarini shaxsiy ravishda boshqaradilar. Kasanachilik turli sohalarda mavjud bo'lib, ko'plab kasanachilar o'z hunarlarini yoki kasbini amalga oshirish uchun o'z xizmatlarini taqdim etadilar. Kasanachilarni ko'pincha hunarmandlar deb atashadi, chunki ular o'z qo'l mehnati yoki maxsus bilim va tajriba asosida mahsulotlar yaratadilar.

Kasanachilikka quyidagi faoliyatlar kiradi:

- **San'atkorlik va hunarmandchilik:** Taxta ishlari, temirchilik, kulolchilik, tikuvchilik va boshqa san'at asarlari yoki amaliy buyumlar ishlab chiqarish.
- **Xizmat ko'rsatish:** Yuridik, tibbiy, ta'lim yoki boshqa sohalarda xizmat ko'rsatish.

- **Tijorat faoliyati:** Kichik do'konlar ochish, kichik ishlab chiqarish yoki savdo bilan shug'ullanish.

Kasanachilik sohasida ko'plab faoliyatlar talab va talabga qarab o'zgaradi, ammo umumiy tamoyil shundaki, kasanachilar o'z mahsulotlari yoki xizmatlari orqali daromad olishadi va ko'pincha o'z vaqtlanini va mehnatlarini samarali boshqarishga intiladilar. Kasanachilikda muhim jihatlardan biri — bu biznesni boshqarishning yuqori darajasi, chunki kasanachilar o'z faoliyatlarining barcha jabhalarida (mahsulot yaratish, sotish, marketing, moliya va boshqalar) ishtirok etadilar. Jumladan, "Silk expert processing" mas'uliyati cheklangan jamiyati Jizzax viloyati hududida faoliyat yuritayotgan kasanachilik markaziga misol bo'la oladi.

"Silk Expert Processing" mas'uliyati cheklangan jamiyati 2018 yil Jizzax shaxri Sayiljoyi mahallasida 2018 yil 27 iyulda ishga tushirilib pillachilik yo'nalishi bo'yicha o'z ish faoliyatini boshlagan. Tasischi xorijiy davlat «ABN-MB» qo'shma korxonasi tomonidan, Jizzax viloyatida pillachilikni rivojlantirish, pillani qayta ishlab tayyor maxsulot ishlab chiqarib, chet davlatlarga eksportni amalga oshirish maqsadida tashkil topgan. Korxonamiz Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 29.03.2017 yilgi PQ 2856-sonli qaroriga asosan tashkil etilib «Uzbekipaksanoati» uyushmasiga a'zo bo'lgan. Bu loyiha bo'yicha chet el investori tomonidan davlatimizga investitsiya olib kirilib, Jizzax shaxrida 120 ta ishchi o'rni yaratish ko'zda tutilgan. Hozirda investor tomonidan investitsiya olib kirilib, Jizzax shahrining Sayiljoyi mahallasi Narimonov ko'chasida eski qozonxona o'rnida pillani qayta ishlash fabrikasi tashkil etildi.

Korxonamizda 120 ta ishchi o'rni yaratilib, bugungi kunda 120 ta ishchi ishga qabul qilingan. 2019 yilda korxonamiz 21 tonnadan ziyod tola mahsulotini Xitoy, Vietnam, Eron davlatlariga eksport qilib belgilangan rejani ortig'i bilan bajardi. 2020 yilda ham korxonamiz belgilangan rejani bajarish maqsadida ishlab chiqarishni kuchaytirish ishlari olib borilmoqda. Korxonaga 2020-yilda 4139 quti ipak qurti urug'i yetishtirish rejalshtirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkichni bajarish uchun 2020-yil bahorgi qurt boqish mavsumida Xitoy davlatidan super elita urug'lari olib kelib korxonaga biriktirib berilgan. Shundan, joriy yil 3-4-mavsumlarda 200 quti ipak qurti urug'i boqildi. Bu borada ishlarimiz davom etmoqda.

Sanoat korxonalarining kasanachilarga zarur xomashyo va materiallarni yetkazib berish asosida oilaviy qudratni rivojlantirish fuqarolarga vaqtidan unumli foydalanish, shu bilan birga, past rentabelli va ko'p mehnat sarfi talab qilinadigan mahsulotlarning ayrim turlarini uy sharoitida ishlab chiqarishni o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi, bu, o'z navbatida, yirik korxonalar ish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari korxonalar iqtisodiy faolligini oshirish uchun ishchi mehnati o'rniga avtomatlashtirilgan qurilma va asboblardan foydalanish qo'l kelishi mumkin. Avtomatlashtirishning asosiy maqsadi – ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, sifatni yaxshilash, mehnat unumdarligini oshirish va jarayonlarni yanada tez va xavfsiz amalga oshirishdir.

Umuman olganda avtomatlashtirishning asosiy va eng oliy maqsadi iqtisodiy samaradorlikka erishishdir. Iqtisodiy samadorlikka erishishga qaratilgan bunday chora tadbirlarning natijasini bahlash ham juda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Iqtisodiy samaradorlik tushunchasi va uning o'chovlari**

Korxona iqtisodiy samaradorligi, o'z faoliyatini amalga oshirishda erishilgan natijalarni, sarflangan resurslar bilan solishtirish orqali aniqlanadi. Samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- **Rentabellik:** Korxonaning foyda olish qobiliyati.
- **Ishlab chiqarish samaradorligi:** Ishlab chiqarilgan mahsulot yoki xizmatning har bir birligiga sarflangan resurslar miqdori.

- **Resurslardan foydalanish samaradorligi:** Korxona tomonidan ishlatilayotgan resurslar (ishchi kuchi, kapital, xom ashyo)dan maksimal darajada foydalanish.
- **Kapital samaradorligi:** Kapitalning foya olish uchun qanchalik samarali ishlatilganligini ko'rsatadi.
- **Statistik usullar va indikatorlar orqali samaradorlikni tahlil qilish**
- Korxona samaradorligini baholashda quyidagi statistik usullar va indikatorlar keng qo'llaniladi:
- **Trendlardan foydalanish:** Korxonaning faoliyati bo'yicha o'zgarishlar va rivojlanish trendlarini tahlil qilish, ishlab chiqarish va foya darajalaridagi o'zgarishlarni kuzatish.
- **Ko'rsatkichlar tizimi:** Samaradorlikni aniqlash uchun ishlatiladigan asosiy ko'rsatkichlar, masalan, rentabellik, foya, ishlab chiqarish hajmi, yillik o'sish sur'ati.
- **Agregat ko'rsatkichlar:** Ma'lumotlarni umumlashtirish va turli ko'rsatkichlar asosida korxonaning samaradorligini umumiy baholash.
- **Indekslar va koeffitsiyentlar:** Korxona samaradorligining vaqt o'tish bilan qanday o'zgarayotganini ko'rsatadigan indekslar (masalan, ishlab chiqarish samaradorligi indeksi, foya o'sish indeksi).
- **Korrelyatsion tahlil:** Korxonaning iqtisodiy samaradorligi bilan uning resurslaridan foydalanish darajasi o'rtaisdagi bog'liqlikni tahlil qilish.

### **Samaradorlikni baholashda statistik ma'lumotlardan foydalanish**

Korxona samaradorligini baholashda statistik ma'lumotlar juda muhim rol o'ynaydi. Bu ma'lumotlar, odatda, korxona hisobotlari va moliyaviy ma'lumotlar asosida yig'iladi. Samaradorlikni tahlil qilishda quyidagi statistik ma'lumotlar muhim:

- **Ishlab chiqarish va sotish bo'yicha statistik ma'lumotlar:** Mahsulotlar hajmi, ishlab chiqarish xarajatlari, sotish narxlari, foya va zararlar.
- **Moliyaviy ko'rsatkichlar:** Rentabellik, kapitalni samarali boshqarish, qarzlarning darajasi, naqd pul oqimi va boshqa moliyaviy tahlil.
- **Ishchi kuchi statistikasi:** Ishlab chiqarish samaradorligi va ishchi kuchi samaradorligini tahlil qilishda ishchilar soni, mehnat haqidagi ma'lumotlar.

Shuningdek, statistik ma'lumotlar tahlil qilishda uning to'g'riliqi va aniqligi muhim ahamiyatga ega. Noaniq yoki no'xat statistik ma'lumotlar noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin.

### **Korxona samaradorligini oshirishga oid statistik tahlilning amaliy yondoshuvlari**

Korxona samaradorligini oshirish uchun statistik tahlilning bir nechta amaliy yondoshuvlarini ishlab chiqish mumkin. Bular orasida:

- **Resurslarni optimallashtirish:** Ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish.
- **Texnologik yangilanish va modernizatsiya:** Samaradorlikni oshirish uchun yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish.
- **Kadrlarni malakasini oshirish:** Ishchi kuchining samaradorligini oshirish uchun treninglar va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish.
- **Marketing va sotuvlarni boshqarish:** Marketing faoliyatlarini yaxshilash va sotuvlar bo'yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish.

Bundan tashqari, statistika yordamida korxona resurslarini samarali boshqarish va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish mumkin.

## **Xulosa va tavsiyalar**

Xulosa o'rniда shuni aytib o'tishim kerakki korxona iqtisodiy faoliyatining samaradorligini baholashda statistik tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Statistik usullar yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish, moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash va umumiyl Samaradorlikni oshirish mumkin. Korxonalar samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalarni joriy etish, kadrlarni malakasini oshirish va marketing strategiyalarini takomillashtirish zarur. Samaradorlikni doimiy ravishda baholash va tahlil qilish korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlashga yordam beradi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. T. A. (2021). "Korxona faoliyati samaradorligini tahlil qilish metodlari". O'zbekiston iqtisodiyoti, 7(2), 45-50.
2. S. M. F. (2022). "Statistik metodlar va ularning iqtisodiyotda qo'llanilishi". Toshkent: O'zbekiston ilmiy nashri.
3. X. S. M. (2020). "Korxona samaradorligini baholashda statistik usullar". Iqtisodiy tahlil jurnali, 5(3), 23-30.
4. Otabek, A., & Dilshod, T. (2023). TIJORAT BANKLARINING KREDIT PORTFELINI BOSHQARISH YO'LLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 158-167.
5. Otabek, A., & Oybek, R. (2023). Statistical study of accounting reports in manufacturing enterprises. *Academia Science Repository*, 4(04), 96-104. dotsent, Jizzax politexnika institute
6. Кузьмина, С. Н., & Атамуратова, Г. М. (2023). МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 11-16.
7. Ali o'g'li, A. O. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTNING JADALLASHUVIDA JIZZAX VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINI STATISTIK TADQIQ ETISHNING ASOSIY JIHATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 94-96.
8. Abdumannonovna, T. D. (2024). STUDYING THE COMPANY'S ACTIVITIES AND ACCOUNTING DURING THE AUDITOR'S INSPECTION. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(2), 21-27.
9. Abdumannonovna, T. D. (2024). DEVELOPMENT AND USEFUL ASPECTS OF AUDITING ACTIVITY IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 15-18.
10. Turumova, D. A. (2023). O 'ZBEKISTONDA ICHKI NAZORAT TIZIMI-AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONINING ASOSIY ELEMENTI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 608-612.